



JAMOAT XAVFSIZLIGINI SANITARIYA- EPIDEMIOLOGIK TAXDIDLARDAN HUQUQIY HIMOYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Nurmatov Dilshodjon Tursunmurod o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti Ilmiy tadqiqot mustaqil izlanuvchisi Farg'ona viloyati Qo'riqlash Boshqarmasi Qo'qon shahar qo'riqlash bo'limi guruh komandiri katta leytenant 94 085 70 30

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7475944>

ARTICLE INFO

Received: 13th December 2022

Accepted: 21th December 2022

Online: 23th December 2022

KEY WORDS

Ekologiya, jamoat xavfsizligi, atmosfera, litosfera, biosfera, havo, suv, tuproq.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Jamoat xavfsizligini sanitariya-epidemiologik taxdidlardan huquqiy himoya qilishni takomillashtirish haqida ma'lumotlar berilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida

ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo'nalishlarini belgilash maqsadida:

1. Jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi ilg'or xorijiy va milliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan hamda aholini har qanday tahdidlardan kafolatli himoya qilishga qaratilgan:

O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq;

2022 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi (keyingi o'rinlarda — Strategiya) 2-ilovaga muvofiq;

2022 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2022-yilda amalga oshirish



bo'yicha "yo'l xaritasi" (keyingi o'rinlarda — "Yo'l xaritasi") 3-ildavaga muvofiq tasdiqlansin.

Konsepsiya, Strategiya va "Yo'l xaritasi"da belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan mas'uliyat jamoat xavfsizligini ta'minlovchi davlat organlarining shaxsan birinchi rahbarlariga yuklatilsin.

2. Konsepsiya va Strategiyani bosqichma-bosqich amalga oshirishning quyidagi tartibi o'rnatilsin:

Vazirlar Mahkamasi (A.N. Aripov) — 2023 — 2025-yillarda har yili jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini joriy qilish bo'yicha aniq mexanizmlarni nazarda tutuvchi manzilli chora-tadbirlar dasturini tasdiqlasin hamda ijrosini qat'iy nazoratga olsin;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi (V.V. Maxmudov) — har yarim yilda davlat organlari rahbarlarining "Yo'l xaritasi" va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan manzilli chora-tadbirlar dasturlari ijrosi, shu jumladan mazkur dasturlarning hududlar kesimida amalga oshirilishi yuzasidan hisobotlarini eshitish va tanqidiy muhokama qilish amaliyotini yo'lga qo'ysin.

3. Belgilansinki:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o'tkazishda hamda istirohat bog'lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bevosita Milliy gvardiya bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi;

2022-2023-yillarda tuman ichki ishlar organlari tarkibidagi konvoy bo'linmalari bosqichma-bosqich viloyat ichki ishlar organlarining bevosita bo'ysunuviga o'tkazilib, yagona boshqaruv tizimi asosida

tumanlararo xizmat o'tash tamoyiliga muvofiq qayta tashkil etiladi.

Milliy gvardiya (R.M. Jo'rayev):

Adliya vazirligi (R.Q. Davletov) bilan birgalikda bir oy muddatda jamoat tartibini saqlash sohasida sodir etiladigan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati ichki ishlar organlari bilan bir qatorda Milliy gvardiyaga berilishi bo'yicha qonun loyihasini kiritisin;

bir oy muddatda hududlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda jamoat tartibini saqlash faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida 2022-yilda Namangan, Farg'ona, Andijon va Surxondaryo viloyatlaridagi, 2023-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridagi Milliy gvardiyaning harbiy qismlarida muddatli harbiy xizmatni kengaytirish bo'yicha asoslantirilgan takliflar kiritisin.

Ichki ishlar vazirligi (P.R. Bobojonov, B.T. Abdullayev):

Moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda hududlarning kriminogen vaziyati va aholi zichligidan kelib chiqqan holda tumanlararo patrul-post xizmati bo'linmalarini tashkil etish me'yorlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda 2022-yil 1-martga qadar tasdiqlangan me'yorlarga asosan mahalliy budjet hisobidan kamida bittadan tumanlararo patrul-post xizmati bo'linmalarini tashkil etish choralarini ko'rsin;

2022-yil 1-mayga qadar budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan ichki ishlar organlari konvoy faoliyatiga konvoy ostidagi shaxslarni elektron brasletlar orqali nazorat qilish tizimini joriy etsin.



4. Ichki ishlar vazirligi tuzilmasida Jamoat xavfsizligi departamenti (keyingi o'rinlarda — Departament) tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Quyidagilar Departamentning asosiy vazifalari etib belgilansin:

ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligi bo'linmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, kompleks tahlil qilish hamda ularga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish;

jamoat tartibini saqlash faoliyatini tashkil etish, jamoat joylarida aholining xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari kuch va vositalarini samarali boshqarish choralari ko'rish;

ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi borasidagi faoliyatini ta'minlash, profilaktik hisob va ma'muriy nazoratdagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish;

voyaga yetmaganlar va yoshlar, ayniqsa ularning uyushmagan qismi bilan manzilli tarbiyaviy va profilaktik chora-tadbirlarni samarali tashkil etish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish;

yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tashkil etish, yo'l-transport hodisalarining barvaqt oldini olish, transport vositasini boshqarishga doir cheklovlariga rioya etilishini nazorat qilish; ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etishni ta'minlash, probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish, ijtimoiy moslashtirish va qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish ishlarini tashkil etish.

Ichki ishlar vazirining o'rinbosari B.T. Abdullayev zimmasiga jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yangi joriy etilayotgan boshqaruv tizimini samarali yo'lga qo'yish hamda Departamentning asosiy vazifalari

o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tashkil etish bo'yicha shaxsiy javobgarlik yuklansin.

Sayyoramizdagi hayotiy muhitlar: havo, suv, tuprog'u zamin va o'simligu hayvonlar olami hamda boshqa ko'plab muhim omillarning tabiiy sifat va miqdor ko'rsatkichlari hozirgi davrda keskin o'zgargan. Bu haqda yuqorida ham, ma'lum darajada. ma'lumotlar ko'rsatildi. Bunga insonlarning o'zlari sababchi, albatta. aniqroq fikr bildiradigan bo'lsak, shu paytgacha insonlar barcha tur tabiiy manbalarga, ya'ni organik va noorganik borliqdan foydalanishda suiste'molchilikka yo'l qo'yib, atrof — muhitga katta ziyon etkazgan desak, aslo xato bo'lmaydi. O'rnida ta'kidlash joizki, hozirgacha yer yuzida 80 mlrd. kishidan oniq odamlar yashab o'tgan (Fransiyalik olimlarning hisob - kitobi) va so'zsiz, tabiatga turli davrlarda turlicha ta'sir ko'rsatishgan. Yer yuzida odam zoti paydo bo'libdiki, o'zining barcha hayoti va faoliyati ehtiyojlarini to'la qondirish maqsadida atrof - muhitdagi hayotiy omillarga nisbatan doim tejamsizlik (nooqilona) munosabatida bo'lgan. Albatta, dastlabki davrlarda, ya'ni odamlar son jihatdan unchalik ko'p bo'lmagan ibtidoiy zamonlarda, tabiiy hududlar Yer yuzida yetarli darajada mo'l bo'lgan va atrof — muhit o'z tabiiy ko'rsatkichlarini tiklab turishga muvaffaq ham bo'lgan. O'zini o'zi tiklay olish xislati tabiatga xos ekanligi ilmiy manbalarda yetarli darajada asoslab berilgan. Yuqoridagilardan tashqari, qayd etish joizki, o'tgan bir necha ming yilliklarda mehnat qurollari va turli sohalarida ishlatiladigan asbob-uskuna, boshqa vositalar ham hozirgidek, texnik jihatdan murakkab, ayniqsa, unchalik ko'p ham bo'lmagan. Demak, tabiiy muhit va



hayotiy manbalarga kuchli ta'sir o'tkazilmagan, desa bo'ladi. Atrof-muhit va tabiatga ta'sir so'nggi yuz yillik - XX asrda nihoyatda kuchayganligi, asosan, fan-texnika misli ko'rilmagan yuqori darajada bo'lganligidir. Yer yuzida odamlar sonining jadallik bilan ortishi, shu bilan birga, ayniqsa, texnik taraqqiyot natijasida atrof-muhit va Yer tabiatida chuqur ekologik o'zgarishlar amalga oshdi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1000 yil oldin jami odamzod Yer yuzida atigi bir necha yuz million kishinigina tashkil etgan, XX asr boshiga kelib, 1,5 mlrd dan sal ortiqroq bo'lgan. So'ngra demografik o'sish nihoyatda kuchaygan (Demografiya - aholishunoslik fan sohasi). Fikrimiz isboti uchun ta'kidlash mumkin: 1940 yilda butun dunyoda odamlar soni 2,3 mlrd, 1980 yili - 4,4 mlrd va 2000 yilga kelib esa, 6 mlrd kishidan ortib ketgan. O'tgan asrda ilm-fan va texnik kashfiyot va ixtirolar turli soha ishlab chiqarishlarida amalga keng qo'llanila boshlandi ham. Buning negizida, so'zsiz - cheksiz ko'payib borgan insoniyat talab-ehtiyojlarini to'laroq qondirish zaruriyati yotadi, albatta. Kerakli barcha modda, mahsulot va materiallar faqat tabiiy manbalardan beayov foydalanish hisobigagina olinib boshlandi: o'rmonlar qirgildi, bo'sh yotgan quraq Yerlar qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun o'zlashtirildi, ko'plab suv omborlari tashkil qilindi, turli-tuman yer usti va yer osti qazilma boyliklari qazib olinib, qayta ishlana boshlandi va hokazo. Xullas, dunyo miqyosida har xil sanoat korxonalari, texnika — transport vositalari, energetika inshootlari faoliyat ko'rsata boshladi. Ko'pchilikka yaxshi ayonki, deyarli hamma texnik va texnologik qurilmalardan atrof-muhitga tarkib-tuzilmalari bo'yicha o'ta zararli yot

unsurlar, chiqindi moddalar sifatida, chiqarib tashlanmoqda. Ular gaz, suyuq va qattiq holatdagi kimyoviy modda - mahsulotlardir. Aslida, ularni qayta ishlash ham mumkin. Lekin, ko'p hollarda, nafaqat qayta ishlash, hatto, ular yetarli darajada tozalanmay va zararsizlantirilmasdan tashlab yuboriladi. Hozir ham, ko'pincha, shunday. Natijada, hayotiy muhitlar o'z tabiiy ko'rsatkichlarini yo'qotib, o'zgarib, pirovard natijada turli xil muammolar yuzaga keldi. Quyida Yerdagi asosiy hayotiy muhitlar misolida, shu haqda ma'lumot beriladi. Havo muhitining Ifloslanishi. Ma'lumki, barcha tabiiy omillar uchun eng zarur havo muhitidir. Boshqacha aytganda, havo Yerdagi jami tirik organizmlar (o'simliklar va hayvonlar) hamdajonsiz tabiat — mineral jinslar o'rtasidagi uzluksiz modda — energiya almashinish jarayonlarini amalga oshirishini ta'minlaydi. Havo muhiti bo'lmaganda hayot ham bo'lmas edi. Nihoyat, havo asosiy hayotiy muhit bo'lishi bilan birga, Yer ob-havosi, uning iqlim sharoitini, davriy ravishda, takror shakllanib turishi uchun muhim omildir ham. Fikrimizni tasdiqlash uchun olim va mutaxassislar amalga oshirgan ayrim ilmiy kuzatuv hamda tadqiqot ishlari natijalarini bayon etamiz. Aniqlanishicha, havo muhiti bo'lmasa, Yer yuzida kecha va kunduz haroratlari 200 °S gacha bir-biridan farq qilishi mumkin ekan. Tabiiyki, bunday sharoitda hech bir jonot, yashamasligi aniq, umuman, bunga chidashi ham mumkin emas. Havo, nafas olish manbailigidan tashqari, yuqorida ta'kidlangandek, ko'plab Yerdagi tabiiy jarayonlarni talab darajasida amalga oshirish uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Birgina misol, har yili qayta-qayta takrorlanib turadigan yil fasllari, ularning o'ziga xos ob-havo, yog'in-sochini va



boshqa iqlimiy ko'rsatkichlarning namoyon bo'lishi aynan atmosfera vositasi tufaylidir. Dunyo miqyosida, evolyutsion tarzda, kishilik jamiyatining rivojlanishi amalga oshib, davrlar o'tish bilan asta-sekin turli-tuman sanoat korxonalari, energetik inshoot va shunga o'xshash texnogen omillar vujudga kelib, ularning faoliyati sabab, atrof tabiiy muhitga salbiy ta'sir kuchaya bordi. Jumladan, havoga juda ko'plab har xil gaz, iflos gazsimon va zararli moddalar chiqarib yuborila boshlandi. Havo muhitida kimyoviy birikmalar, kislorod gazi va suv bug'lari bilan ta'sirlashib, quyosh nurlari vositasida, har xil kimyoviy, fizik-kimyoviy jarayonlarni sodir etub, yanada xavfli kimyoviy birikmalarni hosil qilishi olib borilgan tadqiqot va kuzatuvlar natijasida isbotlangan. Masalan, kislotali yomg'irlar, turli rangda va sifatidagi yog'ilgan qorlar, «Ozon yorig'i» va "Atmosfera dimiqishi" kabi muammolar aynan shunday o'zgarishlarning oqibat natijasidir. Xususan, sanoati va texnik vositalari nihoyatda ko'p bo'lgan Ovro'pa shaharlari havo muhitida kuzatiladigan achchiq (ko'zni yoshlantiruvchi) qora-qurum tutun (smog) lar ham havoga chiqarib yuborilayotgan zaharli gaz moddalari va ulardan hosil bo'lgan birikmalar mahsullari hisoblanadi. Hozirgi davrga kelib, shuni alohida qayd etmoq kerakki, havoni ifloslaydigan texnik-texnologik omillar juda ko'paygan. Misol uchun, metallurgiya sanoatida faoliyat ko'rsatuvchi birgina domna qurilmasi faoliyatini olib ko'raylik. Ularda tabiiy ma'danli mineral jinslar qayta ishlanadi. Bunda, muayyan metall ajratib olinishi bilan birga, havoga yuqori haroratda tonnalab is gazi, hamda karbon. azot va oltingugurt oksidlari, metan va boshqa karbonvodorod birikmalari kabilar tashlab

yuboriladi. Shunga o'xshash chiqindi gazlar qozonxona, issiqlik stansiyalari. turli texnik-transport vositalaridan ham chiqarib yuboriladi. O'tkazilgan hisob - kitoblarga ko'ra, shu narsa ham aniqlanganki, 1 ta yengil avtomashina 1 yil davomida, o'rtacha harakat faoliyati bilan, 2 t miqdorda benzin sarf etadi. Buning uchun havo muhitidan 30 t kislorodni olib ishlatib, uning o'rniga har xil qizigan holdagi gaz moddalarni. ya'ni 60 kg is gazi, 50 kg metan va boshqa karbonvodorodlar, 30 kg azot oksidlari, 5 kg turli aralashma (aerozol) lar, 3 kg gacha oltingugurt oksidi, 5 kg benzopirin, 700 kg yuqori haroratli karbonat angidridi va boshqalarni chiqaradi. Hozirgi davrda, dunyo miqyosida olib qaralsa, har xil rusumdagi bir necha yuz millionlab avtomobillar, yuk mashinalari, samolyot va paraxodlar, shuningdek, ichki yonish dvigatellariga asoslangan turli texnik vositalardan ham foydalaniladi. Bular uchun, xomashyo sifatida, xilma xil tarkib tuzilma va sifatidagi yonilg'ilar - neft va ko'mir mahsulotlari, yonuvchi tabiiy gaz va hokazolar ishlatiladi. Pirovard natijada esa, havoga, yuqorida qayd etilgandek. turli xil zaharli chiqindi moddalar tashlab yuborilmoqda. Yana bir misol, XX asrning 80-yillarida olib borilgan kuzatuvlar va bajarilgan hisob-kitoblarga ko'ra, 1 yil davomida butun dunyo bo'yicha havo (atmosfera) muhitiga 260 mln t atrofida karbon oksidlari, xuddi shuncha oltingugurt oksidi, 50-60 mln t miqdorida azot oksidlari, karbonvodorodlar va boshqa xil gazsimon organik birikmalar chiqarib yuborilgan. Hozirgi kecha-kunda atrof - muhitga chiqarilayotgan gaz va gazsimon chiqindilar bundan ham ko'p bo'lib, ular, ayniqsa, havo muhitini dahshatli sur'atda ifloslab buzmoqda. Ana shunday chiqit gazlarni hosil qilib chiqarib



tashlaydigan texnik-transport vositalari ham, energetik qurilma va inshootlar ham, sanoat korxonalari va boshqa manbalar ham dunyo miqyosida hozirgi paytda nihoyatda ko'payib ketgani hammamizga yaxshi ayon. Yuqoridagilardan tashqari, yangi yaratilgan texnik vositalar, mehnat va urush qurollari, hatto, fazoni tadqiq qilishga mo'ljallangan uchish vosita (raketa) lar sinovi, hamda u yoki bu muayyan Yer hududlarida olib boriladigan turli darajadagi urushlar natijasida ham, ko'plab gaz chiqindilari havoni ifloslantirmoqda. Shu kabi ifloslanishlar sabab ham, Yer atmosferasida turli toifadagi ekologik muammolar yuzaga keldi. «Ozon yorig'i», «Havo dimiqishi» («Parnik effekti»), iqlim va ob-havo ko'rsatkichlarining qator yer hududlarida o'zgargani, ayniqsa, suv toshqinlari, kutilmagan paytda haddan tashqari yog'in-sochinlarning bo'lishi, kislotali yomg'irlar va hokazolar shular jumlasiga kiradi. Havo muhiti bilan bog'liq turli ekologik muammolarni bartaraf qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqib, amalga oshirilmas ekan, yerda kelgusida hayot umuman katta xavf ostida qolishi mumkin. Shuning uchun ham dunyo hamjamiyati yakdillik bilan, birlashgan holda, havo muhiti (atmosfera) ni muhofazasiga doir bir qator zarur chora-tadbirlarni ishlab ham chiqqan. Shu bilan birgalikda, har bir davlat o'z hududida aniq ishlarni bajarishi zarurligi ham belgilangan. Shu bilan bog'liq holda, bizning fikrimizcha, havo muhitni ifloslantiradigan turli manbalarni qat'iy nazorat ostiga olib, kerak bo'lganda, hatto, ular faoliyatini taqiqlab qo'yish maqsadga muvofiq. Xususan, sovutish vositalarida freon (xlor-ftorli karbonvodorod birikma) larni qo'llashni ta'qiqlangani ayni muddao, albatta. Suv

muhiti va uning ifloslanishi. Tabiatda iste'molga yaroqli suv manbalari va ulardagi suv miqdorlari chegaralangan. Bu haqda oldin ham gap borgan edi. Mavjud bo'lgan manbalari ham turli oqava va chiqit moddalar aralashishi tufayli ifloslanmoqda. Hozirgi davrda dunyo miqyosida, ichimlik suv tanqisligi muammosi yuzaga kelgani ham ko'pchilikka yaxshi ayon. Respublikamiz va umuman Markaziy Osiyo mintaqasida ham shunday muammo mavjudligini qayd etmoq kerak. Tabiiy suv manbalarining hozirgi paytda ifloslanishi, asosan, iflos oqavalar hisobiga bo'lmoqda. Ma'lumki, iflos oqava suvlar, odatda, 2 xil yo'l bilan sodir etiladi: birinchisi, tabiiy omillar sabab. Ularga yog'in-sochinlar natijasida paydo bo'ladigan, masalan, katta miqdorda magistral yo'llar va ishlab chiqarish korxonalari hududlarida paydo bo'ladigan iflos oqavalar, hamda bahor faslida sodir bo'ladigan sel va suv toshqinlari natijasidagi iflos suvlar kiradi. Ikkinchi yo'li, bu sanoat korxonalari, xonadonlar va kommunal - maishiy xo'jaliklar faoliyati bilan yuzaga keladigan katta miqdordagi tashlandiq oqava suvlari. Yuqorida ko'rsatilgan oqava suvlarining, ayniqsa, ikkinchi turlari tarkibida suv muhitini buzadigan, ular sifatini o'zgartiradigan turli-tuman zararli birikmalar nihoyatda ko'p bo'ladi. Ma'lum bo'lishicha, hozirgi paytda, bir kecha-kunduzda dunyo miqyosida, faqat sanoat korxonalari hisobiga, 100 mln m kub dan ortiq miqdorda iflos oqava suvlar hosil bo'lar ekan. Biosfera uchun o'ta zararli va xavfli har xil yot unsurlar, jumladan, zaharli kimyoviy moddalar va har xil turdagi og'ir metallar (radioizotoplar ham), shuningdek, ko'plab kasalliklarni keltirib chiqaradigan bakteriya - vimslarning oqavalarda bo'lishi eng katta muammolardandir. Ko'pchilikka



ayonki, tabiiy omillar ta'siri (vaqti — vaqti bilan turli fasllar)da paydo bo'ladigan oqavalar suv havzalariga tushsa ham, ma'lum vaqt o'tishi bilan, biologik jarayonlarning tabiatda uzluksiz bo'lib turishi natijasida. tozalanishi muqarrar. Lekin ba'zi sanoat oqava suvlarining tabiatda o'z-o'zidan tozalanishi juda qiyin. Shuning uchun bunday oqava suvlarni, o'zlari hosil bo'lgan manbalaridayoq, yaxshilab tozalanishi maqsadga muvofiq. Biroq, hozirgi davrda juda ko'p turdagi ishlab chiqarish oqavalari oxirigacha tozalanmay tashqi muhitga chiqarib tashlanadi va buning oqibatida muammolar sodir bo'lmoqda ham. Shu kungi gidrosfera bilan bog'liq kuzatilayotgan ko'plab ekologik muammolar ayniqsa, toza ichimlik suvi tanqisligi, kasalliklar ortib borishi va hokazolar fikrimiz dalilidir. Litosferadagi o'zgarishlar — tuproqlarning ifloslanishi. Davrlar o'tishi bilan, umuman, Yer yuzasi qatlamlarining tarkib-tuzilmasi va sifat ko'rsatkichlari ham o'zgarib borayotgani kuzatilmoqda. Odamlarning Yer yuzida ko'payishi, ya'ni demografik omil sabab, hozir inson oyog'i yetmagan joy qolmadi ham desak, aslo xato bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, odamzod yashamaydigan tabiiy holatdagi hududlar yildan — yilga keskin kamaymoqda. Shu narsa ham yaxshi ma'lumki, inson qayerda yashamasin — o'z ehtiyojlarini, asosan, tabiat hisobiga qondirishga harakat qiladi. Shu bilan birga, turli-tuman ishlab chiqarish korxonalarini barpo etadi va turli xil texnika vositalari, turli ko'rinishdagi transportlardan foydalana boshlaydi. Buni natijasi nimalarga olib kelishi esa, yuqorida bayon qilingan ma'lumotlardan juda yaxshi ko'rinish turibdi. Masalaning boshqa tomoni, ya'ni insoniyat faoliyati (antropogen omil) natijasida, nafaqat litosferaning tarkib —

tuzilmasi, Yerdagi barcha tabiiy manbalar holati, shuningdek, yer landshaft manzarasida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Fikrimiz isboti uchun quyida misollar keltiramiz. Ko'pchilikka yaxshi ayonki, hozirgi davrda, turli — tuman sanoat korxonalari, energetika tarmog'i va boshqa sohalarni xomashyo bilan ta'minlash maqsadida litosfera qatridan tabiiy gaz, neft, ko'mir va boshqa har xil ma'danli va ma'dansiz minerallar qazib olinmoqda. Xuddi shuningdek, yer osti suvlaridan ham jadal sur'atlarda foydalanilmoqda. Natijada, nafaqat tabiiy manbalar zahiralarining kamayishi, hatto, litosfera qatlamlari tarkibida har xil ko'rinish va hajmlarda bo'shliqlar paydo bo'lishi bilan Yer qatlamlari siljishlari kuzatilmoqda ham. Yuqoridagidek o'zgarishlar tufayli, yer osti qatlamlariga xos tektonik kuch va jarayonlarning har xil ko'rinishda ta'siri ham namoyon bo'lmoqda. Yer ko'chmalari, har xil darajadagi silkinish (zilzila) lar va boshqa turdagi abiotik voqea - hodisalar borgan sari ko'plab kuzatilayotganini ham ko'rsatish mumkin. Boz ustiga, ayniqsa, biosfera uchun o'ta xavfli chiqit moddalar (yadroviy chiqitlar) ham litosfera tarkibiga joylashtirilmoqda. Bular hammasi hozirning o'zida yangi-yangi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Biosfera o'zgarishlari va har xil kasalliklarning vujudga kelishi. Yuqorida bayon qilinganidek, atrof — muhitga chiqarib tashlanayotgan gaz, suyuq oqava va qattiq holatlardagi chiqit moddalar hozirning o'zida tabiatga katta ziyon yetkazmoqda. Turli ekologik muammolar hozir biosfera (o'simlik va hayvonot olami)ni ham qamrab olgan. Bunga eng yaxshi dalil o'simlik zararkunandalarining ortib borishi,



kasallanishi va ular mahsuldorligining kamayishi, hayvonot olamida kuzatilayotgan turli — tuman kasalliklar, hatto, ko'plab biologik turlarning yo'qolib iqirilib) borayotganidir.

Xulosa:

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkin: havo va suv muhitlarining jiddiy sur'atda ifloslanib borishi negizida, asosan, turli ishlab chiqarish sohalari uchun zarur bo'lgan tabiiy manba (resurs)larni qayta ishlash jarayonlarida sodir etilayotgan ham gaz-gazzimon, ham suyuq — oqava, hamda qattiq holatdagi chiqit moddalar ta'siri yotadi. Sunday chiqitlar tufayli, nafaqat atmosfera va gidrosfera, balki litosfera va biosfera ham borgan sari ifloslanib bormoqda.

O'simlik va hayvon turlarining keyingi vaqtda yo'qolib borayotgani, og'ir kasalliklarga chalinayotgani, shu jumladan, odamlarning ham kasallanishlarini ortishi haqida ashyoviy ma'lumotlarni ta'kidlash ham joizki, axborot manba-laridan bilib olish mumkin. Shu bilan birgalikda, yil sayin o'simlik va hayvonot dunyosida ko'plab biologik turlarning yo'qolib borayotgani sababli, ularni muhofaza qilish bo'yicha turli chora-tadbirlar ham ko'rilmogda. Turli davlatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham, ko'plab «Qo'riqxona» va «Davlat buyurtmalari» tashkil qilinib, o'simlik va hayvonot olamini muhofaza qilinishidan darak beradi.

References:

1. Roziqov K. Atrof-muhit va inson ekologiyasi muammolari, T.,TITLP,2006[1]
- 2.S.Roziqov K, To'xtayev S, Nigmatov A, Sultonov R . Ekologiya va atrof- muhit haqida yetti saboq . Toshkent "Bioekosan", 2004[2]
- 3.T.Ergashev A. "Umumiy ekologiya" Toshkent "O'qituvchi" 2002[3]
- 4.To'xtayev A.S. Ekologiya. - "O'qituvchi", 2001[4]
- 5.Nigmatov A. Ekologiya nima? -Toshkent, 'TDYul nashr.",2002[5]
- 6.Nigmatov A. Inson va tuproq. - Toshkent "G'afur G'ulom", 2002[6]
- 7.www.lex.uz[7]